

## **HARBIY XIZMATCHI AYOLLAR UCHUN ERGONOMIK VA EKSPLOATATSION KO'RSATKICHLARI TAKOMILLASHGAN FORMALI KIYIM GARDEROBINI YARATISH**

***Abdurahmonova N.D.***

*Toshkent to‘qimachilik yengil sanoat instituti “kostyum dizayni” kafedrasini*

**Annotatsiya:** Maqolada ergonomik va ekspluatatsion ko‘rsatkichlari yaxshilangan harbiy xizmatchilar uchun kiyim-kechak garderobini ishlab chiqish va kiyim-boshni loyihalashtirish bo‘yicha fikr va mulohazalar mavjud.

**Kalit so‘zlar:** forma, kiyim-bosh, kiyim-kechak, dizayner, loyihalashtirish, harbiy xizmatchi, to‘qimachilik, yengil sanoat.

**Аннотация:** В статье представлены идеи и соображения по разработке гардеробной для военнослужащих с улучшенными эргономическими и эксплуатационными характеристиками, а также по дизайну форменной одежды.

**Ключевые слова:** униформа, обмундирование, обмундирование, дизайнер, дизайн, военнослужащий, текстильная, легкая промышленность.

**Annotation:** The article presents ideas and considerations on the development of a dressing room for military personnel with improved ergonomic and operational characteristics, as well as on the design of uniforms.

**Keywords:** uniforms, clothing, designer, design, military personnel, textiles, light industry.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 27-fevraldagи “O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, idoralari va tashkilotlarining formalı kiyim-boshlarini ishlab chiqish, standartlashtirish, tasdiqlash va tayyorlash mexanizmini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2800-son Qarori.[1] Respublikamizda sohada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar milliy

armiyamiz nufuzini yanada yuksaltirish, uning faoliyatini zamon ruhiga monand yo‘lga qo‘yish, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jihatlar ayol harbiy xizmatchilar uchun yangi namunadagi harbiy kiyim-bosh yaratish borasidagi amaliy sa’y-harakatlarda ham yorqin ifodasini topmoqda. Respublikamizda harbiy sohada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar milliy armiyamiz nufuzini yanada yuksaltirish, uning faoliyatini zamon ruhiga monand yo‘lga qo‘yish, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jihatlar harbiy xizmatchilar uchun yangi namunadagi harbiy kiyim-bosh yaratish borasidagi amaliy sa’y-harakatlarda ham yorqin ifodasini topmoqda.[1] Harbiy kiyim-boshni yaratish bo‘yicha ishlar Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti qoshidagi formali kiyim-boshni loyihalashtirish bo‘yicha ilmiy laboratoriyada sohaning malakali xodimlari ishtirokida ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Hozirgi kunga kelib Mudofaa vazirligi, Harbiy prokuratura, Davlat bojaxona qo‘mitasi, Davlat xavfsizlik xizmati, DXX Davlat chegarasini qo‘riqlash qo‘mitasi harbiy xizmatchilari va xodimlari uchun dastlabki namunadagi harbiy kiyim-bosh hamda farqlovchi belgilarning (atributikalar) eskiz loyihalari tayyorlandi.[2]



Bunday keng qamrovli va o‘ta mas’uliyatli vazifani bajarishga malakali dizaynerlar, psixologlar, libos konstrukturлари, texnologlar, olimlar hamda mazkur yo‘nalishda ulkan tajribaga ega harbiy xizmatchilar va soxa xodimlari jalb etilgan holda keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Mutaxasislar tomonidan ushbu

yo‘nalishdagi barcha taklif va mulohazalar, tavsiyalar puxta, har tomonlama chuqr tahlil etilgan holda amaliyotga tadbiq etib kelinmoqda.



Tahlillarga ko‘ra, harbiy kiyim-bosh tayyorlashda foydalilanayotgan mato va materiallarning me’yoriy talablarga mos emasligi, harbiylar kiyim-boshi o‘lchamlarida qo‘srimchalarni qo‘llashda, ergonomik ko‘rsatkichlarni inobatga olishda, harbiy xizmatchilarining kiyim-boshlarini ta’minalashda, harbiy garderob to‘plamida ba’zi bir kamchiliklar kuzatilgan, bu jarayonga oldingi tikilgan kiyim rusumlarda mutlaqo ilmiy yondashilmaganliklari va buning oqibatida harbiy xizmatchilarining kundalik va jangovor harakatlarni bajarishlarida turli noqulayliklar to‘g‘ilayotganligi bo‘yicha etirozli holatlar aniqlangan.[2] Soha mutaxassislarining fikricha, shu vaqtga qadar harbiy kiyim-bosh iqlim, atrof-muhit, tabiiy sharoitlarga muvofiq mavsum bo‘yicha ajratish, harbiy faoliyatning o‘ziga xosligi, bosh kiyim, poyabzal, qo‘srimcha vositalar tayyorlash jarayoni zamonaviy talablarga javob bermas edi. Vaholanki, jahonning aksariyat davlatlarida, yetakchi harbiy tuzilma va tashkilotlarida minglab olimlar, mutaxassislar, ekspertlarni jalb etgan holda harbiy kiyim-bosh tayyorlashda keng qamrovli, tizimli va kompleks tarzda yondashish amaliyoti mavjud.[3] Yuqorida qayd etilgan barcha fikr-mulohazalar va tavsiyalarni hamda kamchiliklarni inobatga olgan holda, harbiy xizmatchilar va soha xodimlari kiyim-boshlarining dastlabki eskizlari va dizaynlari ishlab chiqildi. Yaratilgan kiyim-boshlarning birlamchi namunalari harbiy qismlarda ilk qo‘sishlar sinovidan (aprobatsiyadan) o‘tkazilishi, bunda soha vakillari, harbiy xizmatchilar, yoshlar, xalq, keng jamoatchilikning fikrini chuqr o‘rganish,

tahlil etish, taklif va mulohazalarni umumlashtirib, shundan so‘ng harbiy kiyim-boshlarni keng assortimentda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish mo‘ljallangan.[4]

Ma’lumki, harbiy kiyim-bosh tantanali, kundalik (saf va safdan tashqari), ishxona-ofis uchun, dala o‘quv-mashq, maxsus kabi toifalardan tarkib topganligini hisobga olgan holda. Harbiy xizmatchilar va soha xodimlari uchun kiyim-boshning dizayni va eskizlarini tayyorlashda aynan shularni ham inobatga olgan holda tizimli, keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda harbiy kiyim-bosh uchun mato, farqlovchi belgilar (atributikalar), hattoki mayda detallarning sifati, chidamliligi, ixchamligi hamda harbiy xizmatchilar va soha xodimlarining toifasini farqlovchi belgilar, tasvirlar, barcha-barchasi qat’iy inobatga olingan.[5]

Xulosa sifatida shuni aytishimiz butun dunyodagi geosiyosiy vaziyatlarni hisobga olgan holda harbiy kiyim-boshlarni iqlim, atrof-muhit, tabiiy sharoitlarga muvofiq mavsum bo‘yicha ajratish, harbiy faoliyatning o‘ziga xosligi, bosh kiyim, poyabzal, qo‘shimcha vositalar tayyorlash jarayonini hozirgi davr talabi sifatida qaragan holda harbiy kiyim-boshlarni zamon talabiga mos ravishda ishlab chiqarish lozim.

### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 27-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, idoralari va tashkilotlarining formal kiyim-boshlarini ishlab chiqish, standartlashtirish, tasdiqlash va tayyorlash mexanizmini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2800-son Qarori.
2. Abdurakhmanova N.D., Yunuskhojaeva H.M., Mirtolipova N.Kh. “Development of a package of materials for women’s uniforms of law enforcement agencies” Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. 12, Issue 05, May 2022.
3. Sakharova N.A. Development of design methodology ergonomic body armor using composite textile materials.:dis. ...cand. tech. Sciences: 05.19.04. 2003. 212 p.
4. Cherunova I.V. Theoretical foundations of the complexdesign special heat-protective clothing.: Ph.D. dis. ...cand. tech. Sciences: 05.19.04. Mines 2008. 394 p.
5. Urvantseva ML. Features of designing clothing for mountain sports.: dis. ...cand. tech. Sciences: 05.19.04. Mines, 2005. 150 p.